

Macroeconomic factors and institutional development trends in the formation and assessment of the investment climate

Abirova Nargizabonu, Alfraganus University , Ph.D

Abstract: This thesis analyzes the theoretical essence of the concept of investment climate, its economic content and structural elements. The legal, political, economic, financial and social factors of the investment climate are comprehensively covered, and the relationship between investment potential and the level of investment risk that form investment attractiveness is substantiated. The criteria for assessing the regional investment climate, the impact of macroeconomic indicators on investment decisions, and the institutional directions of the investment strategy are also analyzed. The need to increase the volume of investments, develop the capital market and improve investor support mechanisms within the framework of the investment activity strategy for 2019–2025 is scientifically substantiated. The results of the study serve to ensure sustainable economic growth by improving the investment climate.

Keywords: Investment environment, investment attractiveness, investment potential, investment risk, macroeconomic indicators, capital market, institutional development, investor rights, financial factors, political stability, regional investment policy, investment strategy.

Investitsion muhitni shakllantirish va baholashning makroiqtisodiy omillari hamda institutsional rivojlanish yo‘nalishlari

Abirova Nargizabonu, Alfraganus University i.f.f.d., PhD

Annotatsiya: Mazkur tezisdagi investitsion muhit tushunchasining nazariy mohiyati, uning iqtisodiy mazmuni va tarkibiy elementlari tahlil qilingan. Investitsion muhitning huquqiy, siyosiy, iqtisodiy, moliyaviy hamda ijtimoiy omillari kompleks ravishda yoritilib, investitsion jozibadorlikni shakllantiruvchi investitsion salohiyat va investitsion risk darajasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik asoslab berilgan. Shuningdek,
179

mintaqaviy investitsion muhitni baholash mezonlari, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning investitsiya qarorlariga ta‘siri hamda investitsiya strategiyasining institutsional yo‘nalishlari tahlil etilgan. 2019–2025 yillarga mo‘ljallangan investitsion faoliyat strategiyasi doirasida investitsiyalar hajmini oshirish, kapital bozorini rivojlantirish va investorlarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish zarurligi ilmiy asoslangan. Tadqiqot natijalari investitsion muhitni yaxshilash orqali barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashga xizmat qiladi.


Kalit so‘zlar: Investitsion muhit, investitsion jozibadorlik, investitsion salohiyat, investitsion risk, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, kapital bozori, institutsional rivojlanish, investor huquqlari, moliyaviy omillar, siyosiy barqarorlik, hududiy investitsiya siyosati, investitsiya strategiyasi.

Investitsion muhit deganda, mamlakatning ma‘lum bir regioniga kiritiladigan investitsiyalarning samaradorligini va xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy shart-sharoitlar majmuasi tushuniladi. Investitsion muhit holati yaratilgan huquqiy baza va uning asoslari, qonun xujjatlarining sifatli tuzilishi va ularga rioya qilinishi talab etiladi. Respublikada siyosiy – iqtisodiy sharoitning mavjudligi, ya‘ni qulay investitsiya muhitini yaratilishi va xorijiy kapitalni qabul qilish tizimining samarali bo‘lishi xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning zaruriy shartidir. Investitsion muhit investitsion resurslarni joylashtirish uchun umumiy mezon bo‘lib, birinchi navbatda kapital mablag‘larning daromadlilikini ta‘minlab beradi.

Investitsiya muhitini baholash jarayonida investor investitsiyalashning risk darajasini qanchalik ekanligini aniqlaydi. Investitsiya muhiti darajasi qanchalik yomon bo‘lsa, investor o‘z tadbirkorlik riskini shunchalik yuqori belgilaydi. Investitsiya muhitini makro iqtisodiy darajada quyidagi chizma ko‘rinishida (1.3-rasm) tasvirlash mumkin.

Investitsiya muhitini ta'riflashda va uning holatiga baho berishda quyidagilarni inobatga olish zarurdir:

- ichki mahsulot, milliy daromad va sanoat ishlab chiqarishining o'sishi yoki kamayishi; milliy daromadning taqsimlanishi; jamg'arma va iste'mol munosabatlarining o'zgarishi; xususiylashtirish jarayonlarining borishi; ma'muriy yo'l bilan investitsiya faoliyatini tartibga solishning holati; alohida investitsiya bozorlarining, shu jumladan, fond va pul bozorlarining taraqqiyoti;



1-rasm. Investitsion muhitini belgilovchi omillar¹

- investitsiya iqlimiga ta'sir etuvchi barcha omillarni hisobga olish. Bu omillar qatoriga quyidagilarni kiritish maqsadga muvofiq: hududning iqtisodiy salohiyati, ya'ni mintaqaning pul mablag'lari bilan ta'minlanganligi; ishlab chiqarish va investitsiyalarni

¹ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi

yo'lga qo'yish uchun bo'sh yerlarning mavjudligi; mehnat va energiya resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi; ilmiy-texnikaviy salohiyatning rivojlanganlik 25 darajasi; olib borilayotgan umumiy xo'jalik yuritish shart-sharoitlari, ya'ni ekologik holat, moddiy ishlab chiqarish sohalarining rivojlanganligi; tugallanmagan qurilishlarning hajmi; asosiy ishlab chiqarish fondlarining eskirish darajasi; uy-joy qurilishi sohasining taraqqiy etganligi;

- mintaqada bozor muhitining tarkib topganligi, ya'ni to'laqonli bozor infratuzilmasining rivojlanganligi, xususiylashtirishning investitsiya jarayoniga ta'siri, inflyatsiya darajasi va ta'siri, aholining investitsiya faoliyatiga jalb etilish darajasi, tadbirkorlar o'rtasida raqobat muhitining rivojlanganlik darajasi, xo'jaliklararo aloqalarning faollik darajasi, eksport imkoniyatlari, xorijiy kapitalning mavjudlik darajasi;

- siyosiy omillar, ya'ni aholining mintaqa yoki mamlakat hokimiyat organlariga ishonchi darajasi, mintaqa rahbariyatining Markaziy davlat rahbariyati bilan munosabatlari, ijtimoiy barqarorlik darajasi, milliy, diniy munosabatlarning ahvoli;


- ijtimoiy va madaniy omillar, ya'ni aholi hayot darajasi, maishiy yashash sharoitlari, tibbiy xizmatning rivojlanganligi, ichkilikbozlik, giyohvandlik va shunga o'xshash salbiy odatlarning aholi o'rtasida tarqalganlik darajasi, jinoyatchilik darajasi, haqiqiy ish haqining o'rtacha miqdori, aholi ko'chishining investitsiya jarayoniga ta'siri, aholining o'z davlati va chet davlat tadbirkorlariga nisbatan munosabatlari, xorijlik mutaxassislarining ishlashi uchun shart-sharoitlar;

- tashkiliy-huquqiy omillar, ya'ni hokimiyatning o'z va chet davlat investorlariga munosabati, mintaqa rahbariyatining investitsiyaga doir qonun va me'yorlarga amal qilishi; korxonani ro'yxatdan o'tkazish muammolari va uni hal qilish darajasi, ma'lumotlarni olish imkoniyatlari, mahalliy ma'muriyatning malakaviy darajasi, huquqni himoya qilish idoralari faoliyatining samaradorligi, tovarlarni, kapitalni va

ishchi kuchini tashish va ko'chirish shart-sharoitlari, mahalliy tadbirkorlarning ishchanlik sifatleri va madaniy-ahloqiy darajasi;

- moliyaviy omillar, ya'ni mintaqa byudjetining daromadlari, aholi jon boshiga byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasi, Markaziy va mintaqa byudjetlaridan moliyaviy mablag'lar olishning imkoniyatlari, xorij valyutasida kredit olish imkoniyatlari, bank krediti foizlari darajasi, banklararo hamkorlikning rivojlanganligi, har ming aholiga bank kreditlarining to'g'ri kelgan qismi, uzoq muddatli kreditlarning umumiy kredit qo'yimlaridagi salmog'i, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan omonatlar miqdori, zarar ko'rib ishlovchi korxonalarining umumiy korxonalar tarkibidagi ulushi va boshqalar.

Yuqorida keltirilgan omillar mintaqaning investitsiya muhitini etarlicha ifodalab bera oladi. Shu bilan birga investitsion faoliyatni amalga oshirish shartsharoitlarini ifodalovchi investitsion muhitning quyidagi tashkil etuvchilarning tavsifini keltirilgan (1.4-rasmda). Uning asosiy tashkil etuvchilari sifatida investitsion faollik va o'z ichiga investitsion salohiyat va investitsion risk darajasini oluvchi investitsion jozibadorlik tushunchalari ko'rsatib o'tiladi. Investitsion jozibadorlik - mamlakat, tarmoq yoki alohida olingan biror bir korxonalar investitsiyalarining daromadlilik, rivojlanish istiqbollari va investitsion risk darajasi nuqtai nazaridan baholanishidir.



2-rasm. Investitsion muhitini shakillantirish²

Investitsion jozibadorlik investitsion salohiyat va investitsion risk darajasini shakllantiradigan ikki guruh omillarning bir vaqtda ta'sir etishi orqali aniqlanadi. Bu kabi ko'rsatkichlarga baho berish orqali investitsiyalarning maqsadga muvofiqiligi hamda jozibadorligi, investitsion risk darajasini aniqlash mumkin. Investitsion risk darajasi investitsion muhitga bevosita, to'g'ridan – to'g'ri bog'liqdir. Investitsiya muhitni Makroiqtisodiyot darajasida ikki tomonlama, ya'ni investor va aniq davlat organlari, xo'jalik subyektlari o'rtasidagi munosabatlarda o'z aksini topadi. Investitsiya muhiti har qanday aniq vaqt uchun obyektiv holat bo'lib, kapital qo'yish uchun mavjud sharoitlarning majmuasini o'zida qamrab oladi. Ushbu maqsadga erishish uchun 2019-2025 yillar davomida asosiy kapitalga kiritilayotgan investitsiyalarning o'rtacha yillik darajasini 110 % darajasida bo'lishi talab etiladi.

2025 yilgacha mo'ljallangan investitsion faoliyat strategiyasining maqsadiga erishish uchun asosiy 3 ta institusional yo'nalish bo'yicha vazifalarni amalga oshirish lozim. Ularga:

1. Mamlakatga investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay sharoitlarni va shaffoflikni ta'minlash yo'li bilan xalqaro reytinglarda Mamlakatning o'rnini oshirish va investitsion muhitni yaxshilash. Shu bilan birga infratuzilmani kuchaytirish, investorlar huquqlarini himoyalash darajasini oshirish, xalqaro miqyosdagi investorlar uchun axborot ta'minotini tashkil qilish, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish, faol ish olib borish muhitini yaxshilash, "soyadagi" iqtisodiyotning ulushini qisqartirish, iqtisodiy jarayonlarda davlatning ishtirok etishini optimallashtirish, byurokratik to'siqlarni olib tashlash, ishlab chiqarish va moliyaviy resurslardan foydalanishni ta'minlash hamda kichik sanoat zonalarining salohiyatidan samarali foydalanishdir.

² Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi

2. Qimmatli qog‘ozlar bozorining investitsion institutarini rivojlantirish, tijorat banklarining investitsion salohiyatini kengaytirish, diversifikatsiyalangan kapital bozorini shakllantirish, korxonalarining investitsion imkoniyatlarini kengaytirish hisobiga investitsion resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, investitsion faoliyatga aholi mablag‘larini faol jalb qilish va davlat mablag‘larini samarali taqsimlash.

3. Investorlarni qo‘llab-quvvatlash, yo‘naltirish va rag‘batlantirish bo‘yicha institusional mexanizmlarni yaxshilash orqali investitsiyalarni jalb qilish usullarini takomillashtirish. Ushbu investitsion faoliyat strategiyasini amalga oshirish orqali O‘zbekiston Respublikasi o‘rta muddatda investitsion muhitni va xususiy biznesni rivojlantirish uchun sharoitlarni yaxshilashga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Law of the Republic of Uzbekistan “On Investments and Investment Activities.” – Tashkent, 2019.
2. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan “On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022–2026.” – Tashkent, 2022.
3. Sharpe W., Alexander G., Bailey J. *Investments*. – Moscow: INFRA-M, 2018. – 1024 p.
4. Damodaran A. *Investment Valuation: Tools and Techniques for Determining the Value of Any Asset*. – Moscow: Alpina Publisher, 2019. – 1316 p.
5. Porter M.E. *The Competitive Advantage of Nations*. – New York: Free Press, 1990. – 896 p.
6. Krugman P., Obstfeld M. *International Economics: Theory and Policy*. – Boston: Pearson, 2018. – 800 p.
7. Todaro M., Smith S. *Economic Development*. – Boston: Pearson, 2015. – 896 p.